

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Xodjayev Sobir KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
3. Turdikulov Shuxrat SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
4. Mo‘minov Zokirjon ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
5. Xoliqnazarov Rashidjon DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
6. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
7. Nurullayeva Umida XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
8. Nazarova Nilufar STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
9. A‘zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
10. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
11. Karimova Maftuna RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
12. Butoyev Ilxom SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
13. Bozorova O‘lmasxon YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Ixtiyarov Farxod

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399521>

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada inson kapitali tushunchasi, uni keys metodi asosida tadqiq etish, inson kapitalini keys metodi asosida rivojlantirish, ijtimoiy kapitalga doir xulosalar o’z aksini topgan.

Inson kapitalini rivojlantirish aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayot sifati darajasini yuksaltirish bilan birgalikda yurtimizda ijtimoiy kapitalning rivojlanib borishida zamin bo’ladi. Ijtimoiy kapital davlatning ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy kapital – insonlarning o’zaro ijtimoiylashuvi natijasidir.

Inson kapitalining tarmoq komponentini pivojlantirishning asosiy vazifalari ijtimoiy muhit bilan ijobiylik asosida to’g’ridan-to’g’ri bo’ladigan aloqalarni saqlab qolish va mustahkamlash, salbiy jihatlarini kamaytirib borish yoki butunlay tugatishga erishish, shaxs va jamoalarning salohiyatini tizimli pivojlantirishga erishish zarur. Sotsiumdagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy-siyosiy o’zgarishlar har bir kishiga alohida o’ziga xos ta’sir o’tkazib, jamoatchilik fikrida o’z aksini topadi.

Shuningdek, maqolada inson kapitalini rivojlantirish, shaxsni kamol toptirish, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, “Keys” tushunchasining turli xil izohlari mavjud.

Kalit so’zlar: Inson, jamoa, guruh, sotsium, stereotip, inson kapitali, keys metodi, ijtimoiy kapital, jamiyat taraqqiyoti.

Ихтияров Фарход

независимый соискатель “Национального университета
Ташкентского института ирригации и механизации
сельского хозяйства” при исследовательском институте
управления Бухарского природного института
e-mail: farxod.ixtiyarov.77@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАНИЙ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛ НА ОСНОВЕ КЕЙС-МЕТОДА: ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражено понятие человеческого капитала, его исследование на основе кейс-метода, развитие человеческого капитала на основе кейс-метода, а также выводы о социальном капитале.

Развитие человеческого капитала вместе с улучшением условий жизни населения и повышением качества жизни является основой развития социального капитала в нашей стране. Социальный капитал играет важную роль в социальном развитии страны. Также социальный капитал является результатом взаимной социализации людей. Оно создает нормы поведения между людьми и механизмы взаимного социального влияния.

Основными задачами развития сетевой составляющей человеческого капитала являются сохранение и укрепление прямых связей с социальной средой, основанных на позитиве, снижение или полное устранение негативных аспектов, системное развитие потенциала личности и сообщества. Социокультурные и экономико-политические изменения в обществе уникальным образом влияют на каждого человека и отражаются на общественном мнении.

Также в статье содержатся различные трактовки понятия «Кейс» для развития человеческого капитала, развития личности, обеспечения развития общества.

Ключевые слова: человек, сообщество, группа, общество, стереотип, человеческий капитал, кейс-метод, социальный капитал, социальное развитие.

Ikhtiyarov Farhod

Researcher "Tashkent irrigation and mechanization of agriculture Institute of Engineers" is a freelance researcher at the Bukhara Institute of Environmental Management of the National Research University
e-mail: farhod.ixtiyarov.77@gmail.com

EXAMPLE OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT: BASIC CONCEPTS AND LAWS**ANNOTATION**

This article reflects the concept of human capital, its study based on the case method, basic concepts and legalization, the development of human capital based on the case method, conclusions about social capital.

The development of human capital is the basis for the development of social capital in our country, along with improving the living conditions of the population and improving the quality of life. Social capital plays an important role in the social development of the state. Also, social capital is the result of individual socialization of a person.

The main task of developing the resource component of human capital is to preserve and strengthen the positive connection with the social environment, reduce or eliminate the negative side, and systematically develop the potential of the individual and the team. Socio-cultural and economic-political differences in society have a unique impact on the individual and are reflected in public opinion.

The article also contains various interpretations of the concept of "Business" for the development of human capital, the development of the individual, and the development of society.

Keywords: person, community, group, society, stereotype, human capital, case method, social capital, social development.

KIRISH.

Ma'lumki, keys metodi turli vaziyatli holatlardan kelib chiqib, pedagogik yoki muayyan kompetentsiyalarni baholash maqsadlarida qo'llaniladigan, individual o'rganish, so'ngra guruh ishtirokchilari bilan muhokama qilish yoki yakka tarzda fikrlash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish bilan yakunlanadigan vaziyatli holatlarni o'z ichiga olgan, bayon tarzida ifodalanadigan usul hisoblanadi.

Inson kapitali inson salohiyatining tarkibiy bir qismi sifatida e'tirof qilinar ekan, unda ijtimoiy stereotiplarning ommaviy kommunikatsion jarayon sifatidagi o'rni sifatidagi ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ijtimoiy stereotip – bu ijtimoiy ob'ekt yoki hodisalarning jamoatchilik orasida keng tarqalgan va nisbatan o'zgarmas yoki mustahkam xususiyatlarga ega bo'lgan namunasi hisoblanadi [1, - B. 241]. Inson, jamoa, guruh va hatto sotsiumda stereotiplarning o'zgarmaslik xususiyati jamiyat hayotida an'anaviy qabul qilishlilikni, ong va tafakkurdagi jips holatda saqlanib kelayotgan odatlarning harakatlanishiga bog'liq bo'ladi.

METODOLOGIYA.

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keys topshiriq bahosi to'rt balli tizim bo'yicha qo'yiladi:

1. A'lo – keys-topshiriq to'liq bajarilgan, jamoat oldidagi chiqishga ajratilgan vaqt (reglament) doirasida, talaba(lar) sifatli tahlil asosida tanlangan yechimning to'liq va aniq asoslarini keltirgan. Yaxshi nazariy bilimlar ko'rsatilgan, muammo va uning paydo bo'lishi sabablariga shaxsiy nuqtayi nazari mavjud. Aniqlangan muammolar yuzasidan ularning aniq ierarxiyasi belgilangan. Og'zaki taqdimotda berilgan savollarga ishonch bilan tez javob bergan, chiqish vizializatsiya usullari bilan boyitilgan. Yozma hisobot-taqdimoti holatida keys-topshiriqni bajarish bo'yicha keysning strukturaga ega va detallashgan tahlili qilingan, mumkin bo'lgan yechimlar variantlari keltirilgan (3-5), muqobil yechimlardan bittasining tanlovi aniq va asosli.

2. Yaxshi – keys-topshiriq to'liq bajarilgan, lekin chiqish uchun belgilangan reglament doirasida, talabalar tanlangan yechimni aniq to'liq asoslab berishmagan. Ko'p ortiqcha nazariya mavjud yoki aksincha, nazariy asoslar chegaralangan, muammolarga shaxsiy nuqtayi nazar mavjud, ammo ular yuzaga kelishining barcha sabablari aniqlanmagan. Og'zaki taqdimotda qo'shimcha savollarga qiyinchilik bilan javob berilgan, bajarilgan keys-topshiriqlarning tayyorlangan og'zaki taqdimoti strukturaga ega emas. Yozma hisobot-taqdimotda keys-topshiriqni bajarish bo'yicha keys tahlili to'liq qilinmagan, bir qator faktlar inobatga olinmagan, barcha mumkin bo'lgan muammolar aniqlanmagan, yechim uchun ehtimol asosiy emas, balki ikkinchi darajali muammo tanlangan, keltirilgan yechim variantlarining soni – 2-3 ta, muqobil yechimlardan oxirgi bittasining tanlovi aniq asoslanmagan.

3. Qoniqarli – keys-topshiriq 2/3 qismidan ko'proq bajarilgan, ammo chiqish uchun belgilangan vaqt (reglament) doirasida, talabalar yechimni noaniq berishgan, tanlovni aniq asoslab bera olishmagan, nazariy bilimlarning yetishmasligi yaqqol bilingan. Xulosalar sust, bu dalillarning yetarlicha tahlil qilinmaganligidan dalolat beradi, yechim asosida dalillar yoki taxminlar talqin qilingan. Muammo yuzaga kelishining sabablariga o'z shaxsiy fikri asoslanmagan yoki umuman yo'q. Og'zaki taqdimotda savollarga qiyinchilik bilan javob berilgan yoki umuman javob berilmagan. Bajarilgan keys-topshiriq bo'yicha tayyorlangan taqdimot strukturaga ega emas. Yozma taqdimotda keys-topshiriqni bajarish bo'yicha keys tahlili to'liq qilinmagan, barcha faktlar inobatga olinmagan, yechim uchun asosiy emas, balki ikkinchi darajali muammo tanlangan, keltirilgan yechim variantlarining soni-1-2 ta, tanlangan yakuniy qarorga aniq asoslar keltirilmagan.

4. Qoniqarsiz – keys-topshiriq bajarilmagan yoki uchdan bir qismidan kamroq qismi bajarilgan. Keys tahlilida detallar yo'q, og'zaki yoki yozma ta'rifi strukturaga ega emas.


Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, tarmoq komponentlari hayotiy zarurat tufayli emas, balki ichki ishonch va istak-mayllar tufayli faoliyat tizimini amalga oshiradi. Barcha davrlarda va bugun ham millionlab odamlar o'z hayotiy ehtiyojlaridan ko'ra, asosan, “tirikchilik” qilish, “qorin to'yg'azish”, “ustini butun qilish” uchun ishlaydi va kunini kechiradi. Tabiiyki, hayotga bunday yondashuv bilan mavjud makondan ilhomlanib yashash, undan ijodiy tafakkur shakllantirishning iloji kelib chiqadi va bu sotsiumda iqtisodiy o'sish bo'lmasligiga olib keladi. Inson salohiyatidan kelib chiqib, tarmoq komponentlaridan foydalanish minglab yoki millionlab odamlarga ehtiyojdan ehtiyojga qadar ishlash imkonini beradi. Bunda kishilar “mehnat qilish uchun yashash istagi”dan voz kechib, “yashash uchun mehnat qilish” komponentini egallaydi [8, - B. 346].

ASOSIY QISM.

Inson kapitali bevosita o'zaro aloqalar ta'sirida shakllanib borar ekan, uning insoniy munosabatlardagi shakllari mavjud: a) ijtimoiy harakat; b) ijtimoiy o'zaro harakat; v) ijtimoiy

munosabatlar; g) ijtimoiy nazorat; d) ijtimoiy tashkilot; e) ijtimoiy institutlar. Bular bip tomondan, ijtimoiy aloqalarning tarkibiy komponentlari sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson kapitaliga o'zaro aloqalarga kirishish orqali imkoniyat yaratadi. Umumlashtirilgan tarzda ijtimoiy aloqalar sotsiumda yana boshqa, o'ziga xos ko'rinishlarni keltirib chiqaradi. Bular: a) hayotiy kenglikdagi aloqalar; b) psixologik aloqalar; v) ijtimoiy (sotsial) [2, – B. 449] aloqalar, deb ta'kidlaydi M.Sodirjonov.

Keysni tayyorlashda qo'yiladigan talab va maqsadlar:



1- rasm. Keysni tayyorlashda qo'yiladigan talab va maqsadlar.

Keys metodi asosida muammoli vaziyatni o'rganish davomida quyidagi to'rt amallar bajarilishi lozim, ya'ni quyidagi TTTQ bosqichidan o'tishi talab qilinadi:

Jarayonni Keys metodi asosida o'rganishda keys materiali muammo paydo bo'lgan ob'ekt haqidagi hikoya asosida bayon qilinadi. Bunda albatta ob'ektning qisqacha tarixi, ma'naviy, psixologik, moddiy (moliyaviy) ahvoli ifodalanishi talab qilinadi. Voqelikning personajlari-tavsifi va tavsilotlari kiritiladi. Zaruriyat bo'lsa, ob'ekt bilan bog'liq boshqa omillar ma'lumotlar ham berilishi mumkin.

1- jadval.


Keys turlari va ularning xususiyatlari.

Taqqoslash parametrlar	uchun	Keyslar ko'rinishi	Tadqiqot keysi
		O'quv keysi	
1. Maqsad		Kompetentsiyalarni shakllantiruvchi	Hodisa/jarayonlarni o'rganish, ob'ektiv qonuniyatlarga asoslanish; tadqiqot davomida tasdiqlangan/rad etilgan farazlarning rivojlanishi bilan birga olib boriladi.
2. Kontseptsiya/nazariya		Oldindan mo'ljallanadi (o'zlashtirish uchun)	Aniqlashtiriladi/ tadqiqot davomida rivojlantiriladi
3. Axborot manbalari		Birlamchi va/ yoki ikkilamchi	Asosan, birlamchi
4. Qo'shimcha axborot		Ilovada izohlanadi	Keyinchalik tahlil qilish maqsadida yig'iladi
5. Qaror qabul qilish bosqichi		Oldindan mo'ljallangan va qo'yilgan vaqtda tugallanishi kerak	Ko'rilmaydi
6. Vaziyatlarning (kontekstning) xarakteristikasi		Keys mazmunini ochib beradi	Tadqiqot jarayonida yig'iladi va o'rganiladi
7. Keys muallifining fikri		Qo'shilmaydi	Qo'shiladi (tadqiqot natijasi sifatida)

8. "Teaching notes" bo'limi	Ochib beriladi. Quyidagilarni qamrab oladi: 1) keys annotatsiyasi; 2) ta'lim maqsadi; 3) pedagogik usul va uslublar; 4) keys tahlili; 5) keysning savollari va javoblari; 6) o'quv dasturi; 7) xulosa.	Ochib berilmaydi
9. Qo'llash tartibi	Tor (o'quv kursi yoki mavzu)	Keng (nazariya va amaliyot doirasida)

Shundan keyin boshqaruv jarayonida muayyan o'zgarishlarni talab etuvchi muammoli vaziyat, inqiroz, nizo, tanazzul va hokazo yoritiladi. Materialni bayon etishda personal nomidan so'zlash, dialoglaridan foydalaniladi. Matn hajmi bir yarim betdan oshmaydi. Zarur hollarda asosiy matnga ilovalarda vaziyatni tahlil qilish uchun zarur ma'lumotlar (ya'ni, o'zgarishlar va unga ta'sir etuvchi omillar manbasi), qonunchilikdan ko'chirmalar keltirilishi mumkin.

Keys usulining inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati



3- rasm. Keys usulining inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Keys texnologiyasi inson kapitalini rivojlantirish jarayonini faollashtirish usuli sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

-kasbiy faoliyat sohasidagi vaziyatlarni har tomonlama tahlil qilishning ko'nikmalarini va usullarini o'zlashtirish;

-boshlang'ich vaziyatni aniqlashtirish maqsadida qo'shimcha ma'lumotni talab qilish ko'nikmasini hosil qilish;

-amaliy muammolarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

-noaniqlik vaziyatida qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish;

-o'z nuqtayi nazarini og'zaki yoki yozma shaklda aniq va ravshan ifoda etish ko'nikmalarini o'zlashtirish;

-taqdim etish qobiliyatini shakllantirish, ya'ni o'z fikrini ishonchli ifoda etish, asoslash va himoya qilish;

-boshqalarning fikrini konstruktiv tanqidiy baholash ko'nikmalarini o'zlashtirish;

-vaziyatni guruh bilan tahlil qilish asosida mustaqil qaror qabul qilishni o'rganish.

Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, inson kapitalini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan keyslar turlicha tasniflanishi mumkin.

Keyslar murakkablik darajasi va maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga:

Illyustrativ (tasviriy) o'quv vaziyatlari – shunday keyslarki, ularning maqsadi – ma'lum bir amaliy misolda tinglovchilarni ma'lum bir vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish algoritmiga o'rgatish;

O'quv vaziyatlar – muammo shakllanmagan keyslar, ularda oldingi variantdagidan ancha murakkab vaziyat ta'riflanadi, unda muammo aniq belgilanmagan bo'lib, statistik ma'lumotlar, jamoa fikri, hukumat organlari va h.k. baholarida keltirilgan; bunday keyslarning maqsadi – muammoni mustaqil ravishda aniqlash, mavjud bo'lgan resurslarni tahlil qilgan holda yechimining muqobil yo'llarini ko'rsatish;

Amaliy mashqlar, ularda aniq bir yuzaga kelgan vaziyat tasvirlanadi, undan chiqish yo'llarini topish kerak bo'ladi; bunday keyslarning maqsadi – muammoning hal qilish yo'llarini qidirish.

Inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim jarayonining maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqqan holda keyslar quyidagi turlarga bo'linadi:

- tahlil qilish va baholashga o'rgatuvchi;

- muammoni yechish va qaror qabul qilishni o'rgatuvchi;

- muammo, uning yechimi yoki umumiy kontseptsiyani tasvirlovchi.

Muammoning tarkibi jihatlarini tahlil qilgan holda keyslarni quyidagi turlari ajratish mumkin:

- amaliy keyslar – real hayotiy voqealarni ifoda etadi;

- o'rgatuvchi keyslar – ularning asosiy vazifasi o'rgatish hisoblanadi;

- ilmiy-tadqiqot keyslari – tadqiq qilish faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan.

Inson kapitalini rivojlantirishda keyslarni taqdim etilish shakliga ko'ra keyslar quyidagicha ajratish mumkin:

- og'zaki bayon asosidagi keyslar;

- yozma matn shaklidagi keyslar;


- tasviriy vositalar asosidagi keyslar.

Tuzilishi bo'yicha keyslar:

Strukturaga ega keyslar (highly structured case)-vaziyatning raqamlar va ma'lumotlar bilan qisqa qa aniq tavsifi. Bunday tipdagi keyslar uchun to'g'ri javoblarning ma'lum bir soni mavjud. Ular bilimni baxolash va yoki aniq bir sohada bitta formula, ko'nikma, usullardan foydalaninish qobiliyati uchun mo'ljallangan.

Strukturaga ega bo'lmagan keyslar (unstructured cases) – ko'p sonli ma'lumotlar materiali va tafakkurning uslubi va tezligi, ma'lum bir sohada asosiy narsani ikkinchi darajasidan ajrata olish qobiliyati va ishlash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan. Ularda bir nechta to'g'ri javoblar bo'ladi va odatda, nostandart javob topish imkoniyati rad etilmaydi.

Inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan keyslar juda qisqa, o'rta hajmda uzun bo'lishi mumkin. Har qanday keyslarning yechimini topish jarayonini kuzatish insonni nostandart fikrlay olish qobiliyati, ajratilgan vaqt ichida nechta kreativ g'oyalar bera olishi imkonini beradi. Agar guruh ichida bo'lsa, boshqa fikrni qabul qilish, uni rivojlantirish va amaliyotda undan foydalanishga bo'lgan holatni ham anglash mumkin.



2- rasm. Keyslardan foydalanish jarayonida bajariladigan amallar.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, keys topshiriqlarning tuzilishi keysning turi va uning maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqadi. Umuman keys topshiriqlar uch qismdan, ya'ni kirish, asosiy va yakunlovchi qismlardan iborat bo'ladi.

Birinchi, kirish qismi – “keys” haqida umumiy ma'lumot beradi. U “chaqiruv”ni o'z ichiga olishi mumkin – uni o'qiyotgan kishida qiziqish uyg'otadigan kichik kirish qismi, so'zboshi. So'zboshining quyidagi variantlari mavjud: ko'rib chiqilayotgan vaziyatga qiziqish uyg'otadigan syujetning ma'lum bir boshlanishi; tadqiqotning boshlang'ich ma'lumotlari, atama-so'zlar glossariysi, muhim fikrlar; tadqiqot uchun savollarni tuzish va h. Kirish qismida keysning yechimini topish jarayonida tasdiqlash yoki rad qilinishi kerak bo'lgan gipoteza berilishi mumkin.

Ikkinchi, asosiy qism – hodisa (voqea), muammo, faktlardan iborat kontekst.

Uchinchi, yakunlovchi qism yoki yechimini topish materiallari – keysni yaxshi tushunib olishga yordam beradigan qo'shimcha ma'lumot: savollar, adabiyotlar, qahramonlarning fotosuratlarini, sxemalar, jadvallar [3, – B. 221].

Mutaxasislarning fikriga ko'ra, keysning matni hajmiga qarab ham turlicha bo'ladi. To'liq, qisqartirilgan va mini keyslar mavjud.

To'liq keyslar (o'rtacha 20-25 bet) bir necha kun mobaynida jamoa bo'lib ishlashga mo'ljallangan va odatda, o'z yechimini bir jamoa bo'lib taqdim etishni nazarda tutadi.

Qisqartirilgan keyslar (3-5 bet) bevosita darsda muhokama qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, umumiy munozarani nazarda tutadi.

Mini-keyslar (1-2 bet va undan kamroq), qisqartirilgan keyslar singari, auditoriyada muhokama qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, darsda o'tilayotgan nazariyaga qo'shimcha misol (illyastratsiya) sifatida xizmat qiladi.

Keys topshiriqlarning misollari fanlarning ishchi dasturida keltirilgan bo'lsa, maqsadga muvofiqdir [4, – B. 137].

1. Muammoni tahlil qilish:

“muammo” tushunchasiga asoslanadi;

u yoki bu muammoning mohiyati, o'ziga xosligini anglash va yechimlarini nazarda tutadi (muammoni ifoda etishning ta'rifi;

muammoning makon va zamon chegaralarining ta'rifi;

tuzilishi va funktsiyalarini aniqlash;

muammo rivojlanishining qonuniyatlari, uning oqibatlarini aniqlash;

muammoni yechishda zarur bo'lgan resurslarni aniqlash;

muammoni hal qilishning yo'llari).

2. Sabab-oqibatga yo'naltirilgan tahlil:

sababiyatga asoslanadi;

ushbu holatning yuzaga kelishiga olib kelgan sabablar va uning rivojlanishi oqibatlarini aniqlashni nazarda tutadi.


3. Progmatik tahlil:

amaliy hayotda yeng samarali foydalanish jihatidan u yoki bu ob'ekt, jarayon, hodisani anglashni nazarda tutadi (vaziyatdagi faoliyat mazmunining diagnostikasi, uni modellashtirish va

optimallashtirish). Prognostik tahlilning asosiy tushunchalari sifatida “samaradorlik” – minimal, ya’ni yengil kam resurslar yordamida yuqori natijaga erishish;

“natijalilik” – qo’yilgan maqsadga erishish qobiliyati;

“baholash” – u yoki bu hodisaning samaradorligi va natijaliligi jihatidan ifoda etuvchi qiymat hisoblanadi.



3-rasm. Etnosotsial gupuhlarda inson kapitalini shakllanishi va rivojlanishiga asos bo’luvchi omillar [6, – B. 211].

4. Aksiologik tahlil yoki bu ob’ekt, jarayon, hodisaning qadriyatlar tizimida tahlili:
baholanadigan ko’plab ob’ektlarni aniqlash;
baholash tizimi va mezonlarini aniqlash;

vaziyatni baholashning tizimi, uning tarkibiy qismlari, sharoitlari, oqibatlari, ishtirokchilarining tizimini tuzish.

5. Vaziyatli tahlil:

“Case-study ” usulidan foydalanishda katta ahamiyat kasb etadi. Tahlilning ushbu turi vaziyatni, uning tuzilishi, omillari rivojlanish tendentsiyalarini anglash metodlari va usullari majmuiga asoslanadi.

6. Prognozli tahlil:

ishlab chiqishni emas, balki kelajak modellari va unga erishish yo'llaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu tahlil prognozli diagnostika, tahlil qilinayotgan hodisa yoki jarayonning kelajakka mos kelish darajasini aniqlash (ehtimol, potentsial va istalgan kelajakka nisbatan bashoratlar, prognozlar): tizimning kelajakdagi holati belgilanadi va kelajakka erishish yo'llari hamda kelajak holati aniqlanadi.

7. Tavsiya etiladigan tahlil:

vaziyat ishtirokchilarining xulq-atvoriga nisbatan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Pragmatik tahlidan tavsiya etiladigan tahlilning farqi shundaki, u ma'lum bir vaziyat yoki holatda xulq-atvorning variantlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

8. Dasturiy va maqsadli tahlil:

ushbu vaziyatga moslab faoliyat dasturlari, kelajakka erishishning batafsil modelini ishlab chiqishga qaratilgan [5, – B. 211].

Inson kapitalini amalga oshirishdagi yana bir omil – bu «fuqarolik» komponenti sanaladi. O'z mamlakati fuqarosi sifatida burch va mas'uliyatga oid rollarni bajarish, ijtimoiy muhitda o'zining pozitsiyasini namoyon etish uchun doimiy tayyorgarlik tizimi hamda ma'muriy, huquqiy hamda siyosiy munosabatlardagi faollik kapitaliga aylanib boradi. Shaxsdan Vatan manfaatlarini muhofaza qilish, xavfsizlikni ta'minlash, belgilangan axloq qoidalariga rioya qilish, o'zi istiqomat qilayotgan sotsiumdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy muammolarda dahldorlik va burch talab qilingan. Fuqarolarning ma'naviy-axloqiy salohiyati to'g'risida fikr bildirilganda ijtimoiy muhitda tasdiqlangan me'yor va qadriyatlar, shuningdek, kishilar jamoasidagi ahamiyatga molik munosabatlarni tartibga solib turuvchi qoidalarning uyg'unlikdagi tizimiga e'tibor qaratiladi.

Inson kapitalini rivojlantirishda keys topshiriqni individual yoki guruhiy bajarish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich – keys matni, unda yoritilgan vaziyat yoki holat, uning o'ziga xos jihatlari bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich – muammolarga ko'rsatuvchi faktlar, asosiy muammolarni aniqlash, ta'sir etuvchi omillar va insonlarni aniqlash.

Uchinchi bosqich – muammolar ierarxiyasini tuzish (asosiy va ikkinchi darajalarini belgilash), hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni tanlash.

To'rtinchi bosqich – muammoning yechimlari variantlarining paydo bo'lishi. “Aqliy hujum”ni o'tkazish mumkin.

Beshinchi bosqich – har bir muqobil variantni baholash va u yoki bu variantni qabul qilish oqibatlarining tahlili.

Oltinchi bosqich – keys bo'yicha so'nggi qaror, yechimni qabul qilish, masalan, harakatlar ro'yxati yoki harakatlar ketma-ketligi.

Yettinchi bosqich – individual va guruh qabul qilgan yechimlarni taqdim qilish va umumiy muhokama.

Sakkizinchi bosqich – jarayonga yakun yasash, xulosalar qilish.

Inson kapitalini rivojlantirishda keys topshiriqni tahlil qilishni amalga oshirish bo'yicha tinglovchilarning keys matni bilan tanishish va keysning keyingi tahlil qilinishi tinglovchilarning mustaqil ishi sifatida oldinroq amalga oshirilishi mumkin (uning muhokamasidan bir necha kun avval). Kichik keyslarning muhokamasi o'quv jarayoniga kiritilgan bo'lishi, tinglovchilar ular bilan bevosita darslarda tanishishlari mumkin.

Tahlil bosqichidagi keys bilan ishlashning umumiy sxemasi quyidagicha ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir: birinchi navbatda, keysning asosiy muammolarini aniqlash zarur va berilgan

ma'lumotlarning qaysi biri uning asosiy ishtirokchilari kimligini aniqlash, tahlil uchun zarur ma'lumotni tanlay bilish, masalasini yechishda qanday qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini tushunish.

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keyslar bilan oldindan tanishishdagi tahlil qilish jarayonida sistematik yondashuvga amal qilsalar, keyslar ustida ishlash bo'yicha maksimal foydaga erishiladi, uning asosiy bosqichlari quyida keltirilgan:

1. Keysni tahlil qilishda foydalaniladigan nazariy kontseptsiyalar va yondashuvlarni xotiraga solish maqsadida fanning kerakli bo'limlaridan asosiy g'oyalarni yozib oling.

2. Keys haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun uni tez (ravon) o'qib chiqing.

3. Keys savollarini diqqat bilan o'qib chiqing va sizdan talab etilayotgan narsani yaxshi tushunganingizga ishonch hosil qiling.

4. Keys matnini yana bir marta o'qib chiqing, berilgan savollarga aloqador barcha omillar yoki muammolarni diqqat bilan yozib oling.

5. Keys bilan ishlashda siz ko'rib chiqishingiz uchun taqdim etilgan muammolar bilan qaysi g'oyalar va kontseptsiyalar mos kelishi haqida o'ylab ko'ring:

Keyslarni muvaffaqiyatli tahlil qilishda bir qator printsiplarga amal qilish zarur:

- Ma'ruzada olingan bilimlardan foydalanish;
- Berilgan ma'lumot bilan tanishib chiqish uchun keysni diqqat bilan o'qib chiqish, xulosalar bilan shoshilmaslik;

- Farazlarni faktlar bilan aralashtirmaslik;

- Keysni yozma tahlil qilishda, unga qo'yilgan asosiy talab, bu – qisqalik.

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keys tahlili natijalarini taqdim qilish ushbu uslubning muhim elementi hisoblanadi. Bunda soha mutaxassislari taqdimotning ikki turi ishlashini ta'kidlab o'tishgan:

- Og'zaki (jamoat oldida, ommaviy) taqdimot;

- Yozma hisobot taqdimoti.

Og'zaki taqdimot jamoat oldida chiqish ko'nikmalari, ma'lumotni qisqa, ammo aniq va to'liq ifoda etish, tavsiya etilgan yechimni ishonchli asoslab berish, tanqid va e'tirozlarga to'g'ri javob berishni talab qiladi. Jamoat oldidagi (og'zaki) taqdimotning afzalliklaridan biri uning moslashuvchanligi (tez o'zgarish olishi) hisoblanadi. Taqdimot o'tkazayotgan kishi atrofda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga e'tibor berishi, auditoriyaning kayfiyatini his qilgan holda o'z uslubi va materialini moslashtirishi mumkin.

Yozma hisobot shaklidagi taqdimot matn tayyorlash qobiliyati, hisobotni aniq va batartib tuzish, hisob-kitoblarda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik kabi hislatlarning namoyon bo'lishini talab etadi. Keysning yozma tahlilini tayyorlash og'zakiga o'xshaydi, faqat yozma hisobot-taqdimotlari, odatda, strukturaga ega va detallashgan. Keys yozma tahlilining asosiy qoidasi matndagi ma'lumotni takrorlashdan qochishdan iborat, ma'lumot qayta ishlab chiqilgan shaklda bo'lishi kerak. Bundan eng muhimi – berilgan materialning siz tomondan qilingan tahlili, uning mos ravishda talqin etilishi va qilingan taxminlar. Yozma hisobot – taqdimot ma'lum vaqt o'tgandan keyin og'zaki taqdimotdan so'ng topshiriladi, bu esa munozara davomida olingan barcha axborotni yanada yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi [7, – B. 68].

Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha keys-topshiriqlari bajarilishini baholash quyidagi mezonlar asosida o'tkaziladi:

1. Keys – topshiriqni bajarish va chiqishning ilmiy-nazariy darajasi.

2. Keys yechimining to'liqligi.

3. Keys tahlili va uning yechimi yondashuvidagi ijodkorlik va mustaqillik darajasi. Isbotlab berilishi va ishonchliligi.

4. Materialning ifoda qilinish shakli (erkin; o'z so'zlari bilan; og'zaki yoki yozma nutq savodliligi) va taqdimot sifati.

5. Og'zaki taqdimotda nutq, imo-ishoralar, mimika madaniyati.

6. Xulosalarning to'liqliligi va har tomonlama ekanligi.

7. Muammo o'z qarashlarining mavjudligi.

XULOSA VA TAKLIF.

Inson kapitalini rivojlantirishda keys metodini qo'llash o'ziga xos samarali yondashuv hisoblanadi. Ijtimoiy kapitalning nazariy-metodologik asoslari ijtimoiy aloqalar, tarmoqlar, normalar, qoidalar, ishonch, e'tiqod, majburiyat va shu kabilarning tahlili bilan amalga oshiriladi. U jamoaviy va yakka tartibdagi ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro sherikchilik asosida tashkil etilishi, birlashishi, o'zaro yordam elementlarini ta'minlash komponentlari hisobiga amalga oshiriladi. Inson kapitalini hosil etuvchi ijtimoiy faktorlar inson salohiyati, birinchi navbatda, uning tarmoq tarkibiy qismiga tayanib, o'zaro ijtimoiy aloqalarni yaratadi va uni butun faoliyat mobaynida qo'llab-quvvatlaydi. Bunda barcha resurs (manba)lar, jumladan, hududiy salohiyatdan tortib, inson qobiliyatigacha bo'lgan barcha sifatlar ehtiyoj sifatida namoyon bo'lishi kerak. Ehtiyoj mavjud bo'lgandagina – u kapitalga aylanadi. Va shunday qilib, inson kapitali – bu ijtimoiy faktor (individual va jamoaviy)lar o'rnatgan turli ijtimoiy aloqalar tizimini sotsiumda o'zlashtirish, ulardan ehtiyoj sifatida foydalanish va buning natijasida qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'lish hamda qulayliklar yaratilishi tushuniladi.

Shakllangan ijtimoiy kapital asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarishga kirishish, birinchi navbatda, ijtimoiy adolat tamoyillarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishni talab qiladi. Bu mehnatga ongli ijodiy munosabatda bo'lish, uning samarasi va sifatiga qarab baholashni, mehnat jarayonida o'z-o'zini boshqarish qonuniga rioya qilishni taqozo etadi. Agar yuqoridagilarning hammasi ijtimoiy hayotga joriy etilsa, unda inson jamiyatda o'zining fuqarolik burchlarini bajarган bo'ladi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Психология. Словарь. 2-е изд., испр. и доп. / под общей ред. А. В. Петровского., М. Г. Ярошевского. – М., 1990. – С. 381.
2. Содиржонов М. М. Мониторинг вопросов исследования человеческого капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции //Социальная политика и социальное партнерство. – 2021. – №. 6. – С. 447-458.
3. Киселева Е.В., Сворцова Л.И. Методические указания по выполнению кейс-зоданий. – Вологда, 2017.
4. Панфилова А.П., Громова Л.А., Богачек И.А., Абчук В.А. Основы менеджмента. Полное реководство по кейс-технологиям\ под.ред. профессора Соломина В.П. – СПб.: Питер, 2004. – 240 с.
5. Киселева Е.В., Сворцова Л.И. Методические указания по выполнению кейс-зоданий. – Вологда, 2017.; Стрекалова Н.Д., Беляков В.Г. Разработка и применение учебных кейсов: практическое руководство / Стрекалова Н.Д., Беляков В.Г. Санкт-Петербургский филиал Нац. Исслед. Ун-та “Высшая школа экономики”. СПб.: отдель оперативной полиграфии НИУ ВШЭ – Санкт – Петербург, 2013.
6. Sodirjonov M. Inson kapitali rivojlanish jarayonlarining etnosotsiologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida). Diss. 2022 y.
7. Келарев В.В., Котова Н.С. Кейс-стади как эффективный метод тренинговых технологии в подготовке управленческих кадров / государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2014 № 3.
8. Ходжсон Дж. Экономическая теория и институты. – М., 2003. – С. 345–359.
9. Umarov A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sotsiologiya fan. dokt. diss. – Toshkent: O'zMU, 2005.
10. Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli.Sots. fan. dok. diss.– Toshkent, 2005. – 243 bet.
11. Американская социология. Перспективы проблемы методы / Под. ред. Т. Парсонс. – М., 1972. – 364 с.12. Армстронг М. Практика управления человеческими ресурсами. 10-е изд. / Пер. с англ. под ред. С. К. Мордовина. – СПб.: Питер, 2009. – 848 с.
12. Ачкасов В. Национальная идентичность как исторический нарратив. // Управленческое консультирование. – 2018. – №10. – С. 19–26.

13. Балабанов И. Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2000.
14. Беккер Г. С. Человеческое поведение: Экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с.
15. Беленкова О. А. Роль антропологического фактора управления в формировании человеческого капитала общественного производства // Вестник Башкирского университета. – 2014. – №4. – С. 1495–1502.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000